



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH ISHLARI

2024-YIL YANVAR-SENTABR OYLARI

Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida jami **6 242,1** mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **107,2 %** ni tashkil etdi.




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 811,8 mlrd so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan 140,4 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 3,1 % punktga ko'payib, 13,0 % ni tashkil etdi.

* Yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda

Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar-sentabr oylarida

qurilish ishlari hajmi, mlrd so‘m



Ma'lumot uchun:

Respublika boyicha eng yuqori qurilish hajmini kórsatgan Nukus shahri 1405,2 mlrd so‘m, o‘sish sur’ati 104,0 %, To‘rtko‘l tumani 500,8 mlrd so‘m va o‘sish sur’ati 106,7 %, Ellikqal‘a tumani 387,4 mlrd so‘m, o‘sish sur’ati 113,9 %, Beruniy tumani 331,4 mlrd so‘m, o‘sish sur’ati 110,0 %, Mo‘ynoq tumani 203,3 mlrd so‘m, o‘sish sur’ati 149,3 % ni tashkil etdi.

* Yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda


Qurilish ishlari, 2024- yil yanvar-sentabr oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxona va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Qoraqalpog'iston Respublikasi *	6 242,1	811,8	3 360,4	2 069,9
Nukus sh. tumanlar:	1 405,2	76,3	1 230,0	98,9
Amudaryo	264,5	19,3	140,1	105,1
Beruniy	331,4	8,4	200,5	122,5
Bo'zotov	80,0	3,5	62,0	14,5
Qorao'zak	56,3	8,4	35,4	12,5
Kegeyli	75,7	25,4	35,8	14,5
Qo'ng'irot	268,8	152,2	86,2	30,4
Qonliko'l	77,5	3,8	7,9	65,8
Mo'ynoq	203,3	149,4	36,5	17,4
Nukus	177,9	8,2	100,0	69,7
Taxiatosh	215,7	45,4	145,7	24,6
Taxtako'pir	47,8	2,9	34,4	10,5
To'rtko'l	500,8	58,0	291,6	151,2
Xo'jayli	191,9	3,1	141,0	47,8
Chimboy	130,2	8,2	30,6	91,4
Shumanay	57,2	6,2	17,6	33,4
Ellikqal'a	387,4	38,7	279,3	69,4

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 811,8 mlrd so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan 140,4 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 3,1 % punktga ko'paydi va 13,0 % ni tashkil etdi.

* Yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Mo'ynoq tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 73,5 % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 201,7 %), Qo'ng'iroq tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 56,6 % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 225,1 %), Kegeyli tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 33,5 % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 460,1 %), va Taxiatosh (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 21,0 % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 82,1%) tumaniga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 53,8 % i to‘g‘ri kelib, 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 2,0 % punktga kamaygan. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 102,5 % ni tashkil etgan holda 3 360,4 mlrd so‘m miqdorida qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da



53,8

2024- yil
yanvar-sentabr

55,8


2023- yil
yanvar-sentabr



Ma’lumot uchun: Joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori hajm ko‘rsatkichi Nukus shahri (1 230,0 mlrd so‘m yoki umumiylajiga nisbatan ulushi 87,6 %), To‘rtko‘l tumani (291,6 mlrd so‘m yoki 58,2 %) Beruniy tumani (200,5 mlrd so‘m yoki umumiylajiga nisbatan ulushi 60,5 %), ga to‘g‘ri keldi.

Qurilish ishlaringin umumi hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 33,2 % ni tashkil etdi yoki 2 069,9 mlrd so'm miqdorida qayd etildi. 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 105,4 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **233,1** mlrd so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **6 009,0** mlrd so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **3,7 %** va **96,3 %** ni tashkil etdi.



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2024- yil yanvar-sentabr oylarida

Bajarilgan qurilish ishlaringning katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringning **79,2 %** i yoki **4 942,1** mlrd so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 526,2 mlrd so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 10,6 % ni tashkil etdi.

10,6 %

526,2
mlrd so‘m

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 2527,9 mlrd so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi 51,2 % ni tashkil etdi.

51,2 %


2527,9
mlrd so‘m

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 1888,0 mlrd so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 29,3 % ni tashkil etdi.

38,2 %


1888,0
mlrd so‘m

Yillar bo‘yicha yangi qurilish hajmi va ulushi



Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi bino va inshootlarni qurishga 4 712,6 mlrd so'm, ulushi 75,5 % ni, fuqarolik obyektlarini qurishga 1 197,8 mlrd so'm, ulushi 19,2 % ni, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga 331,6 mlrd so'm va ulushi ulushi 5,3 % ni tashkil etdi



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlar qurilishi



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 8,7 % ni tashkil etdi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,9 % punktga kamayib, 47,4 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,8 % punktga kamaydi va 43,9 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 30,5 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,2 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 69,5 % ni tashkil etdi.

ulushi % da



20,3



79,7

Yirik qurilish
tashkilotlari

2023- yil
yanvar-sentabr



30,5



69,5

Kichik korxona
va mikrofirmalar

2024- yil
yanvar-sentabr

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,4 % punktga kamaydi va 11,8 % ni tashkil etdi. Qolgan, 88,2 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,4 % punktga ko'paydi.

